

**BEHBUDIYNING “PADARKUSH” DRAMASIDA O‘SMIR
OBRAZINING BADIY TALQINI**

Saidova Mahzuna Farhod qizi

Shahrisabz davlat pedagogika insituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asari misolida o‘smir shaxsining ijtimoiy-psixologik shakllanishi masalasi tahlil qilinadi. Asarda aks etgan Toshmurod obrazi orqali yosh avlod tarbiyasidagi muammolar, ilm va ma’rifatning yetishmasligi natijasida yuzaga keladigan fojeali holatlar yoritiladi. Shuningdek, o‘smir shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhitning ta’siri ham ilmiy asosda izohlanadi. Maqola yakunida esa o‘smirni barkamol etib tarbiyalashda ilm, ma’naviyat va ijtimoiy omillarning o‘zaro uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etishi haqida xulosa chiqariladi.

Kalit so‘zlar: o‘smir shaxsi, obraz, ijtimoiy-psixologik rivojlanish, ta’lim va tarbiya, ijtimoiy muhit, “Padarkush”, Toshmurod obrazi, o‘zbek adabiyoti.

Abstract. This article analyzes the issue of the socio-psychological development of the adolescent personality based on Mahmudxo‘ja Behbudiy’s work “Padarkush”. Through the character of Toshmurod depicted in the work, the problems of youth upbringing, as well as the tragic consequences caused by the lack of education and enlightenment, are highlighted. In addition, the influence of the social environment on the formation of the adolescent personality is explained on a scientific basis. The article concludes that the harmonious interaction of education, spirituality, and social factors plays an important role in the comprehensive development of adolescents.

Keywords: adolescent personality, image (character), socio-psychological development, education and upbringing, social environment, “Padarkush”, the character of Toshmurod, Uzbek literature.

Аннотация. В данной статье на примере произведения Махмудходжи Бехбуди “Падаркүш” анализируется проблема социально-психологического формирования личности подростка. Через образ Тошмурода, отражённый в произведении, освещаются проблемы воспитания молодого поколения, а также трагические последствия, возникающие в результате недостатка знаний и просвещения. Кроме того, научно обосновывается влияние социальной среды на формирование личности подростка. В заключении статьи делается вывод о том,

что в воспитании гармонично развитого подростка важное значение имеет взаимосвязь образования, духовности и социальных факторов.

Ключевые слова: личность подростка, образ, социально-психологическое развитие, образование и воспитание, социальная среда, “Падаркүш”, образ Тошмурада, узбекская литература.


Jadid adabiyoti namoyandalari — Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Behbudiy kabi ijodkorlar o‘z asarlarida yosh avlod taqdiri masalasiga alohida e‘tibor qaratganlar. Ular badiiy obrazlar orqali o‘smirlarning jamiyatdagi o‘rni, ularning orzu-intilishlari, ta’lim va tarbiya masalalari, shuningdek, ijtimoiy muhit ta’siri kabi muammolarni yoritganlar. Bu asarlar nafaqat badiiy qiymatga ega, balki o‘sha davr jamiyatining ijtimoiy va ma’naviy holatini ham aks ettiradi.

XX asr o‘zbek adabiyotida o‘smir bolalar taqdiri tasviri ko‘pincha ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit, jamiyatdagi adolatsizliklar yoki ma’naviy muammolar bilan chambarchas bog‘liq holda yoritiladi. Yozuvchilar o‘smir obrazlari orqali jamiyatdagi muammolarni ko‘rsatishga, yosh avlodning ruhiy olami va ichki kechinmalarini ochib berishga intilganlar. Shu orqali badiiy asarlar o‘quvchini nafaqat voqea-hodisalar bilan tanishtiradi, balki uni chuqur mushohada yuritishga ham undaydi.

Adabiyotshunoslikda “obraz” tushunchasi badiiy tafakkurning markaziy kategoriyalaridan biri bo‘lib, u orqali yozuvchi voqelikni o‘ziga xos tarzda aks ettiradi va talqin qiladi. “Obraz” atamasi “raz” (“chiziq”) so‘zidan olingan bo‘lib, “raz” so‘zidan “razit” (“chizmoq, yo‘nmoq, o‘ymoq”) va undan “obrazit” (“chizib, o‘yib, yo‘nib shakl yasamoq”) so‘zi yasalgan. “Obrazit” dan “obraz” («umuman olingan tasvir») vujudga kelgan.¹ Ushbu etimologik izohning o‘ziyoq obrazning dastlabki ma’nosi tasvir, shakl berish, ya’ni voqelikni muayyan ko‘rinishda ifodalash bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Demak, obraz — bu borliqni oddiy aks ettirish emas, balki uni ma’lum shaklga solish jarayonidir.

Adabiy tur va janrlar, uslub va tasviriy vositalarga ko‘ra obraz turlari quyidagilar:

¹ [H.Umarov. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. –T.: “A.Qodiriy nomidagi xalq merosi” nashriyoti, 2004. – 264 b].



Asar qurilishidagi o‘rniga ko‘ra obrazlar 2 turga bo‘linadi: bosh va epizodik obrazlar. “Padarkush” dramasida boy, Toshmurod kabilar bosh obrazga, Liza, Artun kabilar epizodik obrazga misol bo‘la oladi.

Psixologiya fanida o‘smirlik davrining yosh chegaralarini belgilash masalasida yagona va qat’iy qarash mavjud emas. Turli olimlar o‘zlarining nazariy yondashuvlari, tadqiqot obyekti hamda ijtimoiy-psixologik mezonlariga tayangan holda o‘smirlik davrining boshlanishi va yakunlanishini turlicha talqin qiladilar. Jumladan, bir guruh tadqiqotchilar o‘smirlik davrini biologik yetilish jarayoni bilan bog‘lab, uni taxminan 10–11 yoshdan 14–15 yoshgacha (E.G‘.G‘oziyev bo‘yicha) bo‘lgan bosqich sifatida belgilaydilar. G.S.Abramova qarashlarida esa o‘smirlik davri kengroq talqin qilinib, 13–17 yoshgacha, V.A.Kruteskiy nazariyasi bo‘yicha 11–15 yoshgacha, ayrim hollarda esa 18 yoshgacha bo‘lgan davrni qamrab olishi qayd etiladi.

Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o‘smir obrazi — bu faqat yosh jihatidan kichik qahramon emas, balki muayyan davr ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy muammolarining badiiy ifodasidir. O‘smir qahramon orqali yozuvchi jamiyatlardagi muammolarni yanada ta’sirchan, hayotiy va samimiy tarzda ko‘rsatish imkoniga ega bo‘ladi. Chunki o‘smir qalbi voqelikni soxtalikdan xoli, bevosita va ta’sirchan qabul qiladi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlarida bu masala jadidchilik g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi. Adib yosh avlod taqdirini jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘lab, ilm va tarbiyaning hal qiluvchi ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Xususan, “Padarkush” dramasida Toshmurod obrazi orqali o‘smirlik davriga xos psixologik va ijtimoiy muammolar yorqin ifodalangan. Ushbu obraz 15–17 yosh atrofidagi, hali to‘liq

shakllanmagan shaxs sifatida tasvirlanib, uning xulq-atvorida o'smirlikka xos beqarorlik, ta'sirchanlik va mas'uliyatsizlik holatlari kuzatiladi.

Toshmurodning fojeasi uning shaxsiy xususiyatlari bilangina izohlanmaydi, balki u yashagan muhit va tarbiya bilan chambarchas bog'liqdir. Asarda ayniqsa ilm va tarbiyaning yetishmasligi yosh shaxsning noto'g'ri yo'nalishda shakllanishiga sabab bo'luvchi asosiy omil sifatida ko'rsatiladi. Ziyoli nutqi orqali ifodalangan fikrlar ham bu g'oyani yanada kuchaytiradi. Jamiyatda yosh avlod tarbiyasiga bo'lgan munosabat, eng avvalo, ota-onaning dunyoqarashi va qadriyatlari bilan belgilanadi. Ayniqsa, moddiy manfaatni ustun qo'ygan muhitda o'smir shaxsining ma'naviy kamoloti e'tibordan chetda qolishi mumkin. Bu holat "Padarkush" asarida boy va domulla o'rtasidagi quyidagi suhbatda yaqqol ifodasini topadi:

DOMULLA. Xo'b, xo'b, boyvachcha katta bo'lubdur, Xudo umr bersin, usuli jadida maktabigami o'qiydur, yoinki eski maktabga?

BOY. Ikkisiga ham bormaydur.

DOMULLA. O'z hovlingizda o'qutaturg'onsiz?

BOY. Yo'q, yo'q. Men o'g'lumni o'qutmoqg'a o'ylaganim yo'q.

DOMULLA. Ajoyib, sabab nedurki, o'qutmaysuz? Vaholanki, o'qumoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdur.

BOY. Mani xayoling'a dunyoning sababi, izzati — boylik...²

Ushbu dialogda boyning qarashlari orqali uning dunyoqarashi va tarbiyaviy mas'uliyatga bo'lgan befarqligi ochib beriladi. U ilm va ma'naviyatni inkor etib, boylikni inson qadr-qimmatining asosiy mezoni sifatida baholaydi. Natijada, farzandining ta'lim olishi, ma'naviy shakllanishi uning uchun ahamiyatsiz bo'lib qoladi.

Bunday qarashlar bevosita Toshmurod shaxsining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'qimagan, tarbiya ko'rmagan o'smir to'g'ri va noto'g'ri farqlash, hayotiy qarorlarni ongli ravishda qabul qilish imkonidan mahrum bo'ladi. Shu bois uning xatti-harakatlarida mas'uliyatsizlik, muhit ta'siriga beriluvchanlik va axloqiy me'yorlardan chetga chiqish holatlari kuzatiladi.

ZIYOLI. (kirar, gunohkorlarga qarab afsus qilur. Odamlarga qarab). Ilm va tarbiyasiz bolalarni(ng) oqibati shuldir. Agarda bularni otasi o'qutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo'lmas va bular ichkilikni bo'yla ichmasdi, xun beg'ayri haqqin qilmas edi. Umri boricha Sibir va bandg'a va qiyomatg'a jahannamg'a qolmas edi. Agarda bular ichkilik ichmasa edi, dunyo va oxiratda ilalabad azob va mehnatda qolmas edi. Oh, haqiqatda boyni o'ldirgan va bu yigitlarni

² <https://n.ziyouz.com>

azobi abadiyg'a giriftor qilgan beimlikdur. Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqru zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi.³ Ziyolining ta'kidlashicha, yoshlarning jinoyatga qo'l urishi yoki fojeali taqdirga duch kelishi ularning tabiiy xususiyatlari bilan emas, balki yetarli darajada ilm va tarbiya olmaganligi bilan bog'liqdir. Darhaqiqat, inson ongli ravishda shakllanmagan, hayotiy qadriyatlarni anglab yetmagan sharoitda u muhit ta'siriga tez beriladi va noto'g'ri yo'lni tanlashi mumkin.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Toshmurod obrazi ham individual ayb egasi sifatida emas, balki ijtimoiy muhit mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Uning fojeasi — bu faqat bitta oilaning emas, balki butun jamiyatda mavjud bo'lgan jaholat va tarbiyasizlikning oqibatidir.

Keltirilgan parchada "Padarkush" muallifi tomonidan ilgari surilgan fikrlar Toshmurod obrazining shakllanishida asosiy omil sifatida ilmsizlik va tarbiyasizlik hal qiluvchi rol o'ynaganini yaqqol ko'rsatadi. Ziyoli tomonidan aytilgan "ilm va tarbiyasiz bolalarning oqibati shuldir" degan fikr bevosita Toshmurod shaxsiyatiga qaratilgan umumlashma sifatida talqin etiladi.

Asarda Toshmurodning o'qimagan, hayotiy bilim va axloqiy mezonlardan yiroq holda ulg'aygani uning xulq-atvorida yaqqol namoyon bo'ladi. U voqealar rivojida mustaqil va ongli qaror qabul qila olmaydigan, aksincha, muhit ta'siriga beriluvchi o'smir sifatida gavdalanadi. Aynan ilmning yo'qligi uning yaxshilik va yomonlik, halol va harom o'rtasidagi farqni anglashiga to'sqinlik qiladi.

Ziyoli nutqida "agar bularni otasi o'qutsa edi" deya ta'kidlanishi bejiz emas. Bu orqali muallif Toshmurodning fojeasiga bevosita ota — boy obrazini sababchi sifatida ko'rsatadi. Ya'ni, boy moddiy jihatdan farovon bo'lsa-da, farzand tarbiyasiga e'tibor bermaydi, uni ilm olishdan mahrum qiladi. Natijada Toshmurod nazoratsiz, ma'naviy jihatdan bo'sh muhitda shakllanadi.

Shu bois uning padarkushlik darajasigacha borib yetishi tasodifiy emas, balki noto'g'ri tarbiya va ilmsizlikning mantiqiy oqibati sifatida namoyon bo'ladi. Adib ushbu obraz orqali jamiyatdagi eng og'ir illatlardan biri — jaholatni fosh etib, ilm va tarbiyaning yo'qligi nafaqat shaxsni, balki butun jamiyatni fojeaga olib kelishini badiiy asoslaydi.

Toshmurod obrazida o'smirlikka xos quyidagi xususiyatlar yaqqol ko'rinadi:

- Ta'sirchanlik va boshqariluvchanlik;

³ www.ziyouz.com kutubxonasi

- U mustaqil fikrga ega emas, boshqalarning ta'siriga tez beriladi. Bu o'smirlik davriga xos zaiflikdir;
- Mas'uliyat hissining shakllanmaganligi;
- Qilgan ishining oqibatini oldindan anglay olmaydi. Jinoyat sodir etganidan keyingina pushaymonlik hissi uyg'onadi (yig'lashi orqali);
- Ichki beqarorlik va ruhiy zaiflik.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasida o'smir obrazi ijtimoiy-psixologik jihatdan chuqur badiiy talqin etilgan. Toshmurod obrazi o'smirlik davriga xos psixologik beqarorlik, ta'sirchanlik va mas'uliyat hissining yetarli shakllanmaganligini aks ettiradi. Adib ushbu obraz orqali ilm va tarbiyaning yetishmasligi, o'smir shaxsining shakllanishida muhit, tarbiya va ilmning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini, asarda o'smirning fojeali taqdiri uning shaxsiy xususiyatlaridan ko'ra ko'proq ijtimoiy sharoit, noto'g'ri tarbiya va ma'rifatsizlik bilan izohlanishini ko'rsatadi. Ijtimoiy muhit va tarbiyadagi kamchiliklar esa yosh avlodni jinoyat va ma'naviy tanazzul sari yetaklovchi asosiy omil sifatida talqin etiladi.

Shu tariqa, adib o'smir obrazini nafaqat individual xarakter sifatida, balki jamiyatdagi muammolarni aks ettiruvchi badiiy vosita darajasiga ko'taradi. Natijada "Padarkush" asari o'smirlar tarbiyasi, ularning ma'naviy-axloqiy kamoloti masalasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etuvchi asar sifatida namoyon bo'ladi. Toshmurod obrazi o'smirlik davriga xos psixologik beqarorlik, ta'sirchanlik va mas'uliyat hissining yetarli shakllanmaganligini aks ettiradi. Adib ushbu obraz orqali ilm va tarbiyaning yetishmasligi o'smir shaxsining noto'g'ri yo'nalishda shakllanishiga sabab bo'lishini ko'rsatadi. Ijtimoiy muhit va tarbiyadagi kamchiliklar esa yosh avlodni jinoyat va ma'naviy tanazzul sari yetaklovchi asosiy omil sifatida talqin etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D. Quronov. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. Darslik. –Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020. – 310 b.
2. E.G.G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi. Darslik. Toshkent: "NIF MSH", 2020. – 288 b.
3. H.Umarov. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: "A.Qodiriy nomidagi xalq merosi" nashriyoti, 2004. – 264 b.
4. www.ziyouz.com kutubxonasi
5. <https://n.ziyouz.com>